



QASHQADARYO VILOYATI KITOB TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 31-oktabr

333-4-62-Q/25

Kitob tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrda 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan 2026-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni 9-bobi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6- va 24-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-avgustdagi “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-126-sonli Farmoniga asosan:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a‘zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 3 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilishi;

byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a‘zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi hamda xodimlari

soni 20 nafardan ortiq bo'lgan tashkilotlarga nisbatan tadbiq etilishi belgilanganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi hamda tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazining tumandagi tashkilotlar bo'yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o'rinlarini belgilash to'g'risidagi **quyidagi** takliflari ma'qullansin:

xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo'lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o'rinlari soni xodimlar umumiy sonining yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o'rinlari soni xodimlar umumiy sonining uch foizidan oshmagan miqdorida kelgusi yil uchun 105 ta ish o'rinlarini zaxiraga qo'yish, jumladan:

nogironligi bo'lgan shaxslar uchun 8,6 foiz (9 kishi);

oilaviy (maishiy) zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 1,9 foiz (2 kishi);

kambag'al oilalar reyestridagi oilalarning a'zolari uchun 82,8 foiz (87 kishi);

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan shaxslar uchun 3,8 foiz (4 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 1,9 foiz (2 kishi);

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 1 foiz (1 kishi) miqdorida ish o'rinlarining majburiy zaxiralari shakllantiriladi.

3. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida **quyidagilar**:

davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlarining manzilli ro'yxati **1-ilovaga** muvofiq;

xodimlarining ro'yxatdagi o'rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo'jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo'yiladigan ish o'rinlarining manzilli ro'yxati **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlarining tayyorligini yil boshlanishidan oldin o'n kundan kechiktirmay ta'minlab, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limini xabardor qiladi;

ish o'rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo'yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta'minlanib, bu haqda tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limini birinchi chorak tamom bo'lganidan so'ng, 10 kundan kechikmay xabardor qiladi;

ishga joylashtirish to'g'risida tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etadi;

zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlarini saqlash shartlari O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuni 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta'minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-64-sonli qaroriga muvofiq aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo'lgan shaxslarni ish o'rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag'lari to'lab berilsin.

6. O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuni 3-, 13-, 34-, 38-, 39-, 40-, 41-moddalariga asosan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrda 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Nizomning 21-bandi 2-qismiga asosan muhtojlar uchun ish o'rinlarini zaxiraga qo'yish bo'yicha xalq deputatlari tuman Kengashining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to'lash tashkilotni zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlarining belgilangan sonini yaratish bo'yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

8. Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (F.Uzoqov):

besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini 1- va 2-ilovalarda ko'rsatilgan tashkilotlar rahbarlariga yetkazsin va bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlasin:

aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash bo'yicha xalq deputatlari tuman Kengashining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma'muriy javobgarlikka tortish ta'minlansin.

9. 2025-yil 31-dekabrda Kitob tumani hokimining 2024-yil 30-sentabrdagi 325-4-62-Q/24-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan, deb hisoblansin.

10. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytida joylashtirilsin.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Gapparov zimmasiga yuklatilsin.

12. Mazkur qaror 2026-yilning 1-yanvaridan kuchga kiradi.

Kitob tumani hokimi



G‘afurov R.A

Kitob tumani hokimining
2025-yil 31-oktabrdagi
333-4-62-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Kitob tumanida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo'yiladigan ish o'rinlarining manzilli RO'YXATI

Tashkilot nomi	Tashkilot STIRi	Shtat jadvali bo'yicha xodimlarning umumiy soni	shundan ,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo'yladigan ish o'rinlari soni	shu jumladan:					
			nogironlari bo'lgan shaxslar soni		Nogironlari bo'lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag'al oilalar reestridagi oilalarning a'zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
jami:		8034	197	101	8	2	84	4	2	1
Kitob tuman davlat sanitariya va epidemiologiya markazi	200693938	111	3	5	1	0	2	1	0	1
Davlat o'rmon xo'jaligi	200694065	174	3	5	0	0	4	1	0	0
Javuz davlat o'rmon xo'jaligi	200694833	53	2	4	0	0	4	0	0	0
18-sonli umumta'lim maktabi	203217038	95	2	1	0	0	1	0	0	0
37-sonli umumta'lim maktabi	203217092	75	0	1	0	0	1	0	0	0

54-sonli umumta'lim maktabi	203217132	98	3	1	0	0	1	0	0	0
I.Sino sanatoriyasi	201841181	181	3	2	1	0	1	0	0	0
Palandara bola-lar sanatoriyasi	200693644	193	3	3	1	0	2	0	0	0
25-sonli umumta'lim maktabi	203217060	102	3	1	0	0	1	0	0	0
74-sonli umumta'lim maktabi	203217156	125	1	1	0	0	1	0	0	0
Tibbiyot birlashmasi	200693709	2882	81	22	5	2	15	0	0	0
Obodonlashtirish boshqarmasi	205308760	438	9	10	0	0	6	2	2	0
Madaniyat bo'limi	200693842	52	2	1	0	0	1	0	0	0
11-sonli umumta'lim maktabi	203217006	84	4	1	0	0	1	0	0	0
62-sonli umumta'lim maktabi	203536908	93	1	1	0	0	1	0	0	0
70-sonli umumta'lim maktabi	203537344	94	5	1	0	0	1	0	0	0
5-sonli umumta'lim maktabi	203216996	158	2	1	0	0	1	0	0	0
28-sonli umumta'lim maktabi	203217077	101	2	1	0	0	1	0	0	0
1-sonli umumta'lim	203059654	121	1	1	0	0	1	0	0	0

maktabi										
32-sonli umumta'lim maktabi	203537408	96	2	1	0	0	1	0	0	0
65-sonli umumta'lim maktabi	203217149	66	2	1	0	0	1	0	0	0
82-sonli umumta'lim maktabi	203537368	77	1	1	0	0	1	0	0	0
78-sonli umumta'lim maktabi	203537240	68	1	1	0	0	1	0	0	0
20-sonli umumta'lim maktabi	203217045	100	5	1	0	0	1	0	0	0
81-sonli umumta'lim maktabi	203217195	99	1	1	0	0	1	0	0	0
26-sonli umumta'lim maktabi	203536979	65	2	1	0	0	1	0	0	0
21-sonli umumta'lim maktabi	203217053	104	3	1	0	0	1	0	0	0
12-sonli umumta'lim maktabi	203217014	78	4	1	0	0	1	0	0	0
3-sonli umumta'lim maktabi	202861949	99	2	2	0	0	2	0	0	0
36-sonli umumta'lim maktabi	203537329	57	0	1	0	0	1	0	0	0
6-sonli umumta'lim maktabi	203059678	140	5	1	0	0	1	0	0	0
41-sonli	203536930	77	2	1	0	0	1	0	0	0

umumta'lim maktabi										
51-sonli umumta'lim maktabi	203217124	98	1	1	0	0	1	0	0	0
45-sonli umumta'lim maktabi	203217100	86	1	1	0	0	1	0	0	0
47-sonli umumta'lim maktabi	203537154	70	1	1	0	0	1	0	0	0
49-sonli umumta'lim maktabi	203217117	79	0	1	0	0	1	0	0	0
63-sonli umumta'lim maktabi	203536962	76	5	1	0	0	1	0	0	0
2-sonli umumta'lim maktabi	203059685	154	1	1	0	0	1	0	0	0
50-sonli umumta'lim maktabi	203537122	59	3	1	0	0	1	0	0	0
39-sonli umumta'lim maktabi	203537218	49	1	1	0	0	1	0	0	0
46-sonli umumta'lim maktabi	203536947	53	2	1	0	0	1	0	0	0
48-sonli umumta'lim maktabi	203537233	38	0	1	0	0	1	0	0	0
94-sonli umumta'lim maktabi	309684622	48	0	1	0	0	1	0	0	0
73-sonli umumta'lim maktabi	203537107	40	0	1	0	0	1	0	0	0

35-sonli umumta'lim maktabi	203217084	57	1	1	0	0	1	0	0	0
92-sonli umumta'lim maktabi	306680654	55	0	1	0	0	1	0	0	0
91-sonli umumta'lim maktabi	306694858	36	1	1	0	0	1	0	0	0
7-sonli umumta'lim maktabi	203537447	61	0	1	0	0	1	0	0	0
42-sonli umumta'lim maktabi	203537178	38	2	1	0	0	1	0	0	0
83-sonli umumta'lim maktabi	203537193	51	1	1	0	0	1	0	0	0
97-sonli umumta'lim maktabi	203059693	85	5	1	0	0	1	0	0	0
4-sonli umumta'lim maktabi	203059661	136	2	1	0	0	1	0	0	0
96-sonli umumta'lim maktabi	203059701	88	3	1	0	0	1	0	0	0
8-sonli umumta'lim maktabi	203537430	50	1	1	0	0	1	0	0	0
44-sonli umumta'lim maktabi	203537336	88	3	1	0	0	1	0	0	0
72-sonli umumta'lim maktabi	203537257	83	3	1	0	0	1	0	0	0

Kitob tumani hokimining
2025-yil 31-oktabrdagi
333-4-62-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Kitob tumanida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun xodimlarining ro'yxatdagi o'rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo'yiladigan ish o'rinlarining manzilli RO'YXATI

Tashkilot nomi	Tashkilot STIRi	Shtat jadvali bo'yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo'yladigan ish o'rinlari soni	shu jumladan:			
			nogironligi bo'lgan shaxslar soni		Nogironligi bo'lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag'al oilalar reestridagi oilalarning a'zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan shaxslar
jami:		0	0	0	0	0	0	0
"QARSHI CONCH CEMENT" MCHJ XORIJIY KORXONA	305523982	269	3	4	1	0	3	0

Kitob tumani hokimining
2025-yil 31-oktabrdagi
333-4-62-Q/25-son qaroriga
3-ilova

Kitob tuman hokimining "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiyinalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish to'g'risida" gi qarori yuzasidan yuridik xulosa

Mazkur qaror loyihasi O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrda 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiyinalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish tartibi to'g'risida"gi Nizom hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan ishlab chiqilgan.

Kitob tuman hokimining "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiyinalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish to'g'risida" gi qarori O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, qonunchilik texnikasi qoidalariga to'liq javob beradi.

Shuningdek, qaror loyihasida korrupsiya uchun, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tizimida boshqa huquqbuzarliklarni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratuvchi, shuningdek tadbirkorlik sub'ektlari uchun ortiqcha ma'muriy hamda o'zga cheklovlarni joriy etuvchi, tadbirkorlik sub'ektlarining asossiz xarajatlari yuzaga kelishiga olib keluvchi qoidalar va normalar mavjud emas.

Qaror loyihasi 26.09.2025-yilda Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali (regulation.gov.uz)ga (ID 109489, 110217) joylashtirilgan hamda muhokama yakunlangan, muhokama jarayonida hech qanday takliflar kelib tushmadi.

Bundan tashqari, qaror loyihasi O'zbekiston Respublikasining 08.08.2023 yildagi "Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi O'RQ-860-son Qonunining 8-moddasiga binoan korrupsiyaga qarshi ekspertiza o'tkazildi hamda korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar aniqlanmadi. (cheklist ilova qilinadi).

Kitob tuman hokimligi Bosh yuristkonsulti

A.O.Omonov.

Kitob tumani hokimining
2025-yil 31-oktabrdagi
333-4-62-Q/25-son qaroriga
4-ilova

**NORMATIV-HUQUQIY HUJJAT LOYIHASINING
LINGVISTIK EKSPERTIZA
XULOSASI**

7-son

1. Normativ-huquqiy hujjat loyihasining turi: qaror

2. Normativ-huquqiy hujjat loyihasining nomi: Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish to'g'risida

3. Lingvistik ekspertizani o'tkazuvchi: Kitob tumani hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi L. O'roqova

4. Lingvistik ekspertiza o'tkazilgan sana: 2025-yil 24-oktabr


5. Normativ-huquqiy hujjat loyihasi matnida aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish, tegishli tuzatishlar kiritish, matnni qisqartirish, qayta ishlash bo'yicha aniq tavsiyalar ko'rsatiladi.

Hujjat loyihasi ko'rib chiqildi. Matnda uslubiy, imloviy, tinish belgilariga oid xatolar k'p. Qarordagi kamchiliklar tuzatildi.

BERILGAN TAVSIYALAR

T/p	Loyiha matnida	Tavsiyada
1	"Aholi bandligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrda 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan 2026-yil uchun ish o'rinlarini band qilib qo'yish maqsadida, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrda 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan 2026-yil uchun ish o'rinlarini band qilib qo'yish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuni 9-bobi, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuni 6- va 24-moddalariga asosan

Maslahatchi



L. O'roqova